

## MORFEMALI KONTRAKTSIYANING 缩合 “suō hé” TURI HAQIDA



<https://doi.org/10.5281/zenodo.7355164>

**MIRZARAHIMOV Ibrohim**

**Ilmiy maslahatchi: f.f.d.(DSc) Hashimova S.A.**

*This article is devoted to the study of morphemic contraction 缩合 “suō hé” in modern Chinese.*

Ma'lumki, yangi so'zlar strukturasining murakkablashishi tufayli xitoy tilida ko'p sonli qisqartirishlar yuzaga kelgan. Ko'p bo'g'inli so'zlar murakkab tushuncha va hodisalarni to'laroq ifodalashiga qaramay, muloqot jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi ma'lum. Murakkab so'zlarni qisqartirish orqali bu kabi muammoni bartaraf etish va so'zlovchi nutqini ixchamlashtirishga erishish mumkin. Xitoy tilida murakkab qisqartirilgan so'zlar 缩略语 “suō lüè yǔ”, 简称 “jiǎn chēng”, 略语 “lüè yǔ”, 并称 “bìng chēng”, 略称 “lüè chēng”, 省称 “shěng chēng”, 合称 “hé chēng”, 缩语 “suō yǔ” kabi terminlar bilan ifodalanadi. Bularning ortida morfemali kontraksiyaning bir qancha turlari ifodalanadi<sup>1</sup>. Xitoy tilida so'z yasalish jarayoni izchil davom etmoqda. Til leksikasi mavjud so'zlarga turli affikslar qo'shish, boshqa tillardan o'zlashmalar, yangi terminlarning paydo bo'lishi va to'liq nomlar shaklini qisqartirish orqali doimiy ravishda boyib borishi kuzatiladi. Aynan kontraksiya orqali yasalgan so'zlar muloqotning qulay va tejamkor vositasi bo'lib xizmat qiladi. Kontraksiya ma'no va mazmunga ta'sir ko'rsatmaydigan elementlardan halos bo'lishda muhim rol o'ynaydi.

Murakkab qisqartirilgan so'zlar – oddiy so'z va so'z birikmalaridan farqli ravishda gapda butun holda ishtirok etib, turli gap bo'laklari vazifasini bajaradi. Ular muayyan so'zga mos kelsada, o'zining to'liq nomlanishiga ega bo'ladi. Ular tarkibidagi so'zlar miqdori bilan farqlanadi. Zarurat tug'ilganda murakkab qisqartirilgan so'zlar to'liq nomi bilan hech qanday ma'no o'zgarishsiz almashishi mumkin hisoblanib, ularning qo'llanishi ma'lum makon va zamon, vaziyat bilan bog'liq (oddiy so'zlardan farqi ham shunda). Qisqartma so'zlar og'zaki nutq, maxsus leksika, muayyan ixchamlilik va tejamkorlik ustuvor bo'lgan terminologiyada ko'p uchraydi. Siyosiy va yuridik xarakterdagи rasmiy hujjatlarda, shartnomalarda, arizalarda murakkab qisqartirilgan so'zlar nisbatan kamroq qo'llanadi. Odatda, ushbu so'zlarda nisbatan muhim va axborot beruvchi komponentlar qoldirilib, iyeroglif va ma'noga ko'ra ixchamlash me'zoni amal qiladi.

Zamonaviy xitoy tilida morfemali kontraksiyaning to'rt asosiy turi ajratiladi<sup>2</sup>. 缩合 suō hé “qisqatirish”, 节略 jié lüè “tushirish”, 间代 jiān dài “almashtirish bilan qisqartirish”, 统括 tǒng kuò “umumlashtirish”. Morfemali kontraksiyaning 缩合 suō hé turida so'z yoki so'z birikmasi komponentlarga (morfemalar, so'zlar yoki so'z birikmalariga) ajratiladi, so'ng ulardan bir qismi tushirib qoldiriladi, qolganlari esa birikkan holda yangi qisqartirilgan so'zni hosil qiladi. Masalan, 节约用电 jié yuē yòng diàn “elektr tokini tejash”, 节约 jié yuē “tejash” va 用电 yòng diàn “elektr toki” tarzida ajratiladi, so'ng 约 va 用 morfemalari tushirib qoldiriladi, qolgan morfemalar birga qo'shilib, yangi murakkab qisqartirilgan so'z 节电 yòng diàn “elektr tokini tejash” hosil bo'ladi. Fonetika nuqtai nazaridan bu qisqartirish bo'g'inli hisoblanadi, ya'ni qisqartirish birligi bo'g'indir.

<sup>1</sup>S.A.Xashimova. Xitoy tilida so'z yasalishi. – T., 2012. – 87-b.

<sup>2</sup>Li Xinzun, Xun Liangfen. Liuyu shuo zi.- 上海, 1986. -320 页

缩合 suō hé “qisqartirish, kamaytirish orqali birlashtirish, qo’shish” kabi ma’nolarni anglatib, morfemali kontraksiyaning eng ko‘p uchraydigan usulihisoblanadi. Unda morfemali kontraksiya xususiyatlari aniq namoyon bo‘ladi. Morfemalarning joylashuviga qarab har xil turlarga bo‘linadi, turli modellar, xususan, atributiv va kopulyativ model bo‘yicha amalga oshadi. 缩合 ning turli xil usullari mavjud. Quyida ularni ko‘rib chiqamiz:

1. Boshlang‘ich morfemalarni qo’shish. 环境保护huán jìng bǎo hù “atrof-muhitni muhofaza qilish”, 环境huán jìng “atrof-muhit” va 保护bǎo hù “muhofaza qilish” so‘zleri ajratiladi va 境jìng va 护hù morfemalari tushirilib, 环保huán bǎoso‘zi hosil bo‘ladi; 环境卫生huán jìng wèi shēng “atrof-muhit sanitariya sharoitlari” ham shu tarzda tahlil qilinadi, 环境huán jìng “atrof muhit” va 卫生wèi shēng “sanitariya” so‘zlarining 环huán va 卫wèi boshlang‘ich morfemalari qo’shiladi, 环卫huánwèi yangi shakl yasaladi; 小学教师xiǎo xué jiào shī“boshlang‘ich mакtab o‘qituvchisi”, bunda ham 小学xiǎo xué“boshlang‘ich mакtab” va 教师jiào shī“o‘qituvchi” so‘zleri ajratilib, 学xué va 师shī morfemalari tushirilib, 小教xiǎo jiāo hosil bo‘ladi;

2. Birinchi so‘zning boshlang‘ich morfemasi va ikkinchi so‘zning oxirgi morfemasining birlashishi. 能源消耗néng yuán xiāo hào “energiya resurslarini sarflash” birikmasida 能源néng yuán “energiya resursi” va 消耗xiāo hào “sarfl etmoq” so‘zlarini ajratgan holda, 能源néng yuán so‘zning boshlang‘ich morfemasi 能néng hamda 消耗xiāo hào so‘zining so‘nggi morfemasi 耗hàobirikib 能耗néng hào “energiya resurslarini sarflash” hosil bo‘ladi.

3. Birinchi so‘zning boshlang‘ich morfemasining ikkinchi so‘zning boshlang‘ich va so‘nggi so‘zning oxirgi morfemalari bilan birlashishi. Ushbu tur asosan tashkilot, jamoat, birlashmalarning nomlarini ifodalashda qo‘llaniladi: 人民代表大会rén míng dài biǎo dà huì – 人民rén míng “xalq” va 代表dài biǎo“vakil” so‘zlaridagi boshlang‘ich morfemalar 人rén va 代dài hamda 大会dà huì “yig’lish, majlis, konferensiya” so‘zining oxirgi morfemasi 会huì birikib, 人代会rén dài huì “xalq vakillarining yig’lishi” hosil bo‘ladi;

4. Birinchi so‘zning har bir keyingi so‘zning boshlang‘ich morfemalari bilan birlashishi: 中国作家协会zhōng guó zuò jiā xié huì – “Butun Xitoy yozuvchilar uyushmasi”; 中国zhōng guó “Xitoy” so‘zi 作家zuò jiā “yozuvchi” so‘zining boshlang‘ich morfemasi 作zuò, 协会xié huì “uyushma” so‘zining ilk morfemasi 协xié bilan birlashib, 中国作协zhōng guó zuò xié“Butun Xitoy yozuvchilar uyushmasi” ko‘rinishiga kiradi.

5. Birinchi so‘zning keyingi so‘zning oxirgi morfemasi bilan birlashishi: 供销合作社gōng xiāo hé zuò shè birikmasida 供销gōng xiāo “ta’minalash va sotish” so‘zi 合作社hé zuò shè “kooperativ” so‘zining so‘nggi morfemasi 社shè bilan birlashadi: 供销社gōng xiāo shè “ta’minalash va sotish bo‘yicha kooperativ”;

6. Birinchi so‘zning oxirgi morfemasining keyingi so‘zning boshlang‘ich morfemasi bilan birlashishi: 民警mín jǐng qisqartmasi 人民警察rén míng jǐng chá “xalq politsiyasi”, ya’ni 人民rén míng “xalq” so‘zining ikkinchi va 警察jǐng chá “politsiya” so‘zining birinchi morfemasining birikishidan hosil bo‘lgan; 书展shū zhǎn “kitob ko‘rgazmasi” – 图书tú shū “kitob” so‘zining 书shū va 展览会zhǎn lǎn huì “ko‘rgazma” so‘zining 展zhǎnmorfemalaridan hosil bo‘lgan;

7. Ikkita so‘zning oxirgi morfemalarining birlashishi: 调号diào hào – 声调符号shēng diào fú hào “ton belgilari (ishoralari)” 声调shēng diào “ohang, ton” va 符号fú hào “belgi, ishora” so‘zlarining oxirgi morfemalari birlashadi;

8. Birinchi so‘zlarning boshlang‘ich morfemalarining oxirgi so‘z bilan birlashishi: 降低噪音系数jiàng dī zào yīn xì shù – 降噪系数jiàng zào xì shù shovqinning pasayish koeffitsienti; 降低jiàng dī “pasayish” va 噪音zào yīn “shovqin” so‘zlarining boshlang‘ich morfemalari 系数xì shù “koeffitsient” bilan birlashadi.

9. Birinchi so‘zlarning oxirgi morfemalarining oxirgi so‘z bilan birlashishi: 记录重放磁头jì lù chóng fàng cí tóu – 录放磁头lù fàng cí tóu “tovush chiqarishning magnitli yozish kallagi”; 记录jì lù va 重放chóng fàng so‘zlaridagi 录 va 放 morfemalari 磁头cí tóu bilan birlashadi.

10. Tushirib qoldiriladigan morfemalarning pozitsiyasi belgilanmagan model: 文史哲wén shǐ zhé – 文学wén xué “adabiyot”, 历史lì shǐ “tarix”, 哲学zhé xué “falsafa” – adabiyot, tarix va falsafa (gumanitar fanlar); Demak, 缩合suō hé – qisqartirish doirasida morfemali kontraksiyaning o‘nta turi yoki modellarini bo‘lish birlashayotgan morfemalar pozitsiyalarini ajratish tamoyiliga asoslanadi. Bundan tashqari, yuqorida ta’riflangan modellardan farq qiluvchi, lekin 缩合suō hé doirasida ko‘rib chiqiluvchi yana uch model ajratiladi. Bular:

11. Morfemalarning joylashish tartibi o‘zgartirilgan model:

热传导系数 rè chuán dǎo xì shù “issiqlik o‘tkazish koeffitsenti” (热 rè va 导 dǎo morfemalarining joyi o‘zgaradi, 传 chuán esa tushirib qoldiriladi va 系数 xì shù bilan birlashadi) morfemalari o‘zgarishi natijasida ushbu ko‘rinish hosil bo‘ladi: 导热系数 dǎo rè xì shù “issiqlik o‘tkazish koeffitsenti”;

12. Butun so‘zni (odatda, ikkinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lgan so‘zni) tushirib qoldiruvchi model. Bu model bo‘yicha tashkilotlar, idoralarning nomlari, shuningdek, ilmiy-texnik terminologiya tuziladi, masalan: 1) Oxirgi so‘z tushirib qoldiriladi: 高等专业学校gāo děng zhuān yè xué xiào – 高等gāo děng “oliy daraja”, 专业zhuān yè “mutaxassislik”, 学校xué xiào “maktab,muassasa” – 高专gāo zhuān oliy o‘quv muassasi; Bunda oxirgi so‘z 学校xué xiàotushib qoldiriladi. 2) Birinchi so‘z tushirib qoldiriladi: 中国工厂党中央军事委员会zhōng guó gōng chǎng dǎng zhōng yāng jūn shì wěi yuán huì – “Xitoy Kommunistik partiyasi Markaziy Kommitetining Harbiy Kengashi” ning qisqartirilgan ko‘rinishi – 中央军委zhōng yāng jūn wěi. 3) O‘rtada turgan so‘z tushirib qoldiriladi: 抗日军政大学kàng rì jūn zhèng dà xué “Yaponiyaga qarshilik ko‘rsatish harbiy siyosiy akademiyasi” murakkab birikmasining qisqartirilgan ko‘rinishi 抗大kàng dà bo‘lib, o‘rtadagi so‘z tushib qoladi; 4) Birinchi va o‘rtada turgan so‘z tushirib qoldiriladi: 中国人民共和国第六届全国人民代表大会zhōng guó rén mǐn gòng hé guó dì liù jiè quán guó rén mǐn dài biǎo dà huì – “Xitoy Xalq Respublikasi butun mamlakat vakillari oltinchi umumiy yig’ilishi” ushbu ko‘rinishda qisqaradi: 六届人大liù jiè rén dà ;

13. Umumi komponentga ajratilgan model: 中医西医zhōng yī xī yī – 中zhōng “xitoy”, 医yī “tabobat”, 西xī “g‘arb”, 医yī “tabobat” ma’nolarini anglatib, umumi komponent 医yī ning biri tushiriladi: 中西医zhōng xī yī “xitoy va g‘arb tibbiyoti”;

14. Sanani qisqartirish (ushbu turga tegishli model): Odatda, 月yuè “oy” va 日rì “kun” so‘zlar tushirilib, sananing raqamlarigina qoldiriladi: 八月二日bá yuè èr rì “ikkinchi avgust” quyidagicha aytilishi mumkin: 八二bá èr ; 五月一日wú yuè yírì “birinchi may”: 五一wú yī.

Yuqorida keltirilgan modellardan ko‘rinib turibdiki, qaysi pozitsiyada nechta morfema tushirib qoldirilishidan qat’iy nazar hamisha eng muhimlari, mazkur iboraga xoslari, uning mazmunini o‘zgartirmaydiganlari qoladi. Morfemali kontraksiyaning 缩合 suō hé turi nisbatan unumdar bo‘lib, aksariyat murakkab so‘zlar ushbu usulning modellari orqali qisqartiriladi va xitoy leksikasining tarkibiy qismi sifatida keng yoyilib bormoqda. Ma’no jihatidan eng muhim komponentlar saqlanib qolinishi morfemali kontraksiyaning semantik xususiyatidan darak beradi.

#### **REFERENCES**

1. Xashimova S.A. Xitoy tilida so‘z yasalishi. – Т.: 2012. – 250 б.
2. Войцехович И.А., Кодрашевский А.Ф. Общественно-политический перевод. – М., «Муравей», 2002 г. – 185с.
3. Горелов. В.И. Лексикология китайского языка. – М.: Просвещение, 1984. – 370с.
4. Кленин И. Д. Морфемная контракция и ее типы в современном китайском языке. – Вопросы языкознания, 1975, №2, стр.96-97.
5. Кубрякова Е.С. Что такое словообразование. – М.: “Наука”, 1965. – 254с.
6. Li Xinzun, Xun Liangfen. 流语说字. – 上海出版社, 1986. 410 页.
7. Ren Xueliang. 汉语造字法. – 北京 : 中国社会科学出版社, 1981. 278 页.
8. Wang Xijie. 汉语修辞法. – 北京出版社 1983. 377页.
9. С. Хашимова. О ЯВЛЕНИИ КОНВЕРСИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2022.
10. С.А.Насирова (2021). Политическая метафора (на примере материала по кадровой политике современной КНР). In Resent Scientific Investigation (pp. 69-73).
11. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ РЕЗУЛЬТАТИВНЫХ ГЛАГОЛОВ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In Страны. Языки. Культура: сборник материалов XI-й международной научно-практической конференции/Под ред. проф. Абуевой НН Махачкала: ДГТУ. 391 с (р. 361).
12. Хашимова, С. А. (2020). Особенности образования неодушевлённых существительных при помощи суффиксации в современном китайском языке. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 34-46.
13. Nasirova, S. A. (2019). Modification of semantics of social terms of the modern Chinese language. *Opción: Revista de Ciencias Humanas y Sociales*, (24), 260-273.
14. Хашимова, С. А. (2022). АГГЛЮТИНАТИВНАЯ ОСОБЕННОСТЬ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 196-202.
15. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10.
16. Насирова, С. А. (2020). Генезис общественно-политической терминологии китайского языка через призму истории китайской дипломатии. *Modern Oriental Studies*, 2(2), 22-33.
17. Хашимова, С. А. (2022). О НЕКОТОРЫХ ОСОБЕННОСТЯХ ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОГО АСПЕКТА КОММУНИКАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ КИТАЙСКОГО ЯЗЫКА). *SO'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI*, 1(1), 85-91.
18. Хашимова, С. А. (2022, September). ОБРАЗОВАНИЕ ПРИЛАГАТЕЛЬНЫХ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. In *E Conference Zone* (pp. 5-10).

19. Abdullayevna, H. S. (2020). Peculiarities of the formation of animated nonsignificant using suffixing in the modern chinese language. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 10(5), 1504-1511.
20. Хашимова, С. А. (2022). ОБРАЗОВАНИЕ ЧИСЛИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ АФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *World scientific research journal*, 7(1), 20-23.
21. Насирова, С. А., Хашимова, С. А., & Рихсиева, Г. Ш. ВЛИЯНИЕ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ КИТАЯ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОБЩЕСТВЕННО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ ТЕРМИНОЛОГИИ. *Ответственный редактор*, 162.
22. NS Abdullayevna. 上合组织国家的科学研究: 协同和一体化。上合组织国家的科学研究: 协同和一体化 · 87, 0
23. С.А.Насирова. Институт евнухов в древнем Китае: причины возникновения и особенности (2022). Фундаментальные и прикладные научные исследования: актуальные вопросы, достижения и инновации. С. 187-188.
24. NS Abdullayevna. Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии (2019). In КИТАЙСКАЯ ЛИНГВИСТИКА И СИНОЛОГИЯ 3,384,2019